

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TUSHUNCHASI

Joldasbaeva Ramuza
Qoraqalpoq davlat universiteti
Chet tillari fakulteti talabasi
Kulmbetova Gulzina

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davrda ta'lim tizimida ilg'or qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning nima ekanligi haqida ya'ni pedagogik texnologiya tushunchasi haqida so'z yuritiladi hamda misollar orqali tushuntiriladi. Ta'lim texnologiyasi o'quv faoliyatini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etishga, ularning pedagog bilan o'zaro hamkorlikda o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, pedagogik jarayon, ta'lim-tarbiya jarayoni, pedagogika, zamonaviy pedagogik texnologiya, o'qitish texnologiyasi, ta'lim texnologiyasi, ta'lim metodi, ta'lim metodikasi, pedagogik texnika, pedagogik texnologik jarayon.

Annotatsiya: Bul maqalada hâzirgi dâwirde tâlim sistemasında qollanilip atirg'an pedagogikalıq texnologiyalardıń ne ekenligi haqqında yaǵnıy pedagogikalıq texnologiya túsiniǵı haqqında sóz júritiledi hám de misallar arqalı tusintiriledi. Ta'lim texnologiyası oqıw iskerligin nátiyjeli, tabıslı shólkemlestiriwge, olardıń pedagog menen óz-ara sheriklikte oqıw materialların puqta ózlestiriwi ushın zárúr sharayatlardı jaratılıwına xızmet etedi.

Gilt sózler: pedagogikalıq texnologiya, pedagogikalıq process, ta'lim-tárbiya procesi, pedagogika, zamanagóy pedagogikalıq texnologiya, oqıtıw texnologiyası, ta'lim texnologiyası, ta'lim metodi, tâlim metodikasi, pedagogikalıq texnika, pedagogikalıq texnologiyalıq process.

Аннотация: В этой статье мы поговорим о том, что такое передовые педагогические технологии, используемые в системе образования, то есть о понятии педагогической технологии и объясним его на примерах. Педагогическая технология служит для того, чтобы эффективно и успешно организовать учебную деятельность, создать необходимые условия для полноценного усвоения ею учебного материала во взаимодействии с педагогом.

Ключевые слова: педагогическая технология, педагогический процесс, учебный процесс, педагогика, современная педагогическая технология, технология обучения, образовательная технология, метод обучения, методика обучения, педагогическая методика, педагогический технологический процесс.

“Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bog’liq” [1]

O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi [2] da belgilangan “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag’batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy faoliyat yo’nalishlaridan ta’lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta’minlash [3] kabi ustuvor vazifalari ta’lim muassasalarida o’qituvchilar innovatsion faoliyatini tashkil etish zarurligini ko’rsatmoqda. Chunki kasbiy ta’limning xalqaro andozalarga to’liq mosligini ta’minlash va ijtimoiy buyurtma asosida malakali kadrlarni tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va innovatsion faoliyatga tayyorlash amaliyotiga joriy qilish ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiya nazariyasi o’tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo’lsada, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga msbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani “amaliyotga tadbiiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi” deya ta’riflaydi

hamda asosiy diqqatni o’quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi [4]. N.F.Talizina esa pedagogik texnologiyani “fan va amaliyot oralig’ida muayyan tamoyillarni olg’a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo’llash kabi masalalarni hal etishga yo’naltirgan mustaqil fan” [5] bo’lishi lozimligini qayd etadi va h.k. So’nggi o’n yilliklar davomida nutqimizda “pedagogik texnologiya”, “zamonaviy pedagogik texnologiya”, “o’qitish texnologiyasi” kabi tushunchalar keng qo’llanilmoqda.

Mualliflarning “pedagogik texnologiya” tushunchasini yoritishga yondashuvlari ham turlicha. Masalan: “Pedagogik texnologiya” tushunchasining mohiyati: - ta’lim jarayoniga topshiriqli yondashuv (T.N.Ballo); - bosqichli o’qitish (L.V.Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov) [6] - mazmunli umumlashma (G.K.Selevko); - barcha jihatlariga ko’ra o’ziga xos, samarali natijalarni qo’lga kiritish imkonini beruvchi pedagogik tizimni tashkil etish bilan bog’liq holda ta’lim tizimi doirasida olib borilayotgan tadqiqot nazariyasi va amaliyotining muayyan tarmog’i (P.Mitchel); - texnologik loyihaga asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etish usuli (S.K.Islamgulova); - ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko’zlagan o’qitish va b.ni o’zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etish va aniqlashning izchil metodi (YUNESKO); - pedagogik maqsadlarga erishish yo’lida foydalaniladigan barcha shaxsiy, uskunali va metodologik vositalarning tizimli yig’indisi va ularning amal

qilish tartibi (M.V.Klarin); - taʼlim jarayoniga nisbatan oʻziga xos yondashuv; - ijtimoiy-muhandislik tafakkurining pedagogik ifodasi, texnokratik ongning pedagogikaga koʻchirilgan tasviri, taʼlim jarayonining muayyan standard (B.L.Farberman); - didaktik maqsad, talab etilgan oʻzlashtirish darajasiga erishish, taʼlim jarayonini avvaldan loyihalashtirish (U.N.Nishonaliyev); - pedagogning oʻqitish (tarbiya) vositalari yordamida oʻquvchilarga muayyan sharoit va izchillikda taʼsir koʻrsatishi va mazkur faoliyatning mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayoni (N.Saidahmedov); - muayyan vaziyatlarda pedagogik masalalarni yechishning optimal usuli (A.Kushnir); - kutilayotgan natijaga erishish jarayonining tavsifi (I.P. Volkov). “Taʼlim texnologiyasi” tushunchasi “taʼlim metodikasi” tushunchasiga nisbatan kengdir. Taʼlim metodi - oʻquv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yoʻnaltirilgan pedagog va oʻquvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli. Taʼlim texnologiyasi - taʼlim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, yaʼni, avvaldan loyihalashtirilgan taʼlim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yoʻlida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda taʼlim jarayonini yuqori darajada boshqarish sifatida qaralib kelingan. Lugʻaviy jihatdan “taʼlim texnologiyasi” tushunchasi (ing. “An educational technology”) - taʼlim jarayonini yuksak mahorat, sanʼat darajasida tashkil etishga doir maʼlumotlar beruvchi fan, taʼlimot maʼnosini anglatadi. Taʼlim texnologiyalari umumiy asoslarining negizi boʻlgan qonuniyatlardan xabardor boʻlish uchun “qonuniyat” tushunchasining mohiyatini yetarli darajada anglab olish talab qilinadi. Shunga koʻra pedagogikada har qanday fanning qonuniyatlarini yoritishda tizimli tarkibiy yondashuv uning metodologik asosi boʻlib xizmat qiladi. Binobarin, tizimli-tarkibiy yondashuv pedagogik-texnologik tizimda kechadigan ketma-ket doimiy takrorlanib turuvchi, muhim, zarur, barqaror aloqalarini yoritish imkonini beradi [7].

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, zamonaviy taraqqiyot oʻtgan asrning boshlarida jamiyat hayotining barcha sohalarida texnologiyalarning qoʻllanilishiga zamin yaratdi. Mazkur holat bilan bogʻliq ravishda taʼlim muassasalari, aniqrogʻi, oliy oʻquv yurtlarida “Pedagogik texnologiya” oʻquv fanini oʻqitishga boʻlgan ehtiyoj yuzaga keldi. Taʼlim texnologiyasi oʻquv faoliyatini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etishga, ularning pedagog bilan oʻzaro hamkorlikda oʻquv materiallarini puxta oʻzlashtirishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. “Pedagogik texnologiya” oʻquv fani ham oʻzining texnologik yondashuv, texnologik madaniyat, pedagogik jarayon, loyihalash, pedagogik jarayonni loyihalash, modul, taʼlim maqsadi, tarbiya maqsadi, texnologik tizim, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim, pedagogik tashxis, interfaol metod, texnologik pasport, texnologik xarita hamda pedagogik mahorat elementlari kabi asosiy kategoriyalariga ega. Suhbat, anketa, intervyu,

pedagogik tahlil, pedagogik kuzatish, modellashtirish, bolalar ijodini o'rganish, test (predmetli va psixologik testlar), ta'lim muassasasi hujjatlarini o'rganish, pedagogik tajriba, ekspert baholash, matematik-statistik tahlil kabi ilmiy-pedagogik metodlar pedagogik texnologiya masalalarini o'rganishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. SH.M.Mirziyoev. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlkatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir-Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 22b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2017. –B.39.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni // QHMMB: 06/17/5264/0339-son 01.12.2017 y.
4. Беспалько В.Г. Слагаемые педагогической технологии. - Москва: Педагогика, 1989. - С.6.
5. Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. - Москва: Изд-во, 1984. -С.13.
6. Исламгулова С.К. Технологичация процесса обучения в школе: теория и опыт - Алматы: Творческая педагогика, 2003. - С.23
7. Shukruna B. O'zbek tilining izohli lug'ati".5-jildli. Beshinchi jild.
8. www.ziyonet.uz
9. www.qrusspo.uz/pt/5.htm
10. <http://psylist.net/pedagogika/inovacii.htm>